

Raqsnning Jamiyat Hayotidagi Tutgan O'Rni

Jawmitbaeva Saxibjamal

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi

Yuldasheva Zuxra Salievna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola raqs va uning jamiyat hayotida tutgan o'rnini tarixiy mabaalar asosida yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, raqs, ibtidoiy jamoa, musiqa, arxeologik topilma, joziba, san'at, go'zallik, manbaa, imo-ishora, iltijoli raqslar.

Har tomonlama insonning e'tiborini tortadigan nafis va jilvakor yuz ifodasi ko'rinishiga ega bo'lgan qo'l, oyoq va tana harakatlarini o'zida mujassam etib raqs ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu raqs insonni o'ziga sehrlab oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Raqsni chinor daraxtiga o'xshatish mumkin. Chunki, chinor daraxtining salobatli tanasi va baquvvat ildizlari esa har tomonlama mukammal hisoblanadi. Yana chinor daraxti uzoq umr ko'rishi bilan ajralib turadi. Raqs tarixi ham shunchalik uzoq davrni o'z ichiga olganligini tarixidan bilib olishimiz mumkin va raqs san'ati barcha san'at turlari orasida eng qadimiysi hisoblanadi.

Raqs insoniyat paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan va san'atning keng tarqalgan va ommabop turi sifatida jamiyat hayotida o'rin tutgan. Imo-ishora raqsnning birlamchi manbai sanalib, eng oddiy va ibtidoiy odam o'zining ruhiy ham jismoniy kechinmalarini ifodalash uchun foydalangan. Bu inson o'zida kashf etgan ilk in'om va ne'mat desak adashmagan bo'lamiz. Inson o'zining mavjudligidan, hali tushunarsiz, sirli va dushmanday bo'lib ko'ringan tabiatda ustunligidan quvonar ekan, o'zining va atrofidagi tabiatning mavjudligi sabablari haqida o'ylay boshlaydi. Uning birinchi fikri, o'ziga-o'zi bergan birinchi savoliga javobi esa-bu Tangri bo'ldi. Uning o'zi tuygan birinchi hissi esa tangrimin natdor chorhilik va qo'rquv edi.

Ibtidoiy odam o'zining oddiy turmushida eng sodda imo-ishoralar bir-biri bilan muloqot qilishning bu yagona usuli va minnatdor chorhilik ibodati uchun ham foydalangan. Ibtidoiy odamlarning harakatlari va qiliqlari go'zallikdan yiroqdir, ular qandaydir qiymatga ega emas, ular shunchaki, qandaydir yo'l bilan biror-bir muayyan niyatsiz o'zi ko'rgan hodisalarga taqlid qilish yoki o'zini ularning izmi ostida tasvirlash vositasidir. U shunchaki chaqmoq zarbalaridan qanday qilib qo'rquvdan yiqilishi, qanday qilib quyoshga jilmayishini, qanday yeb-ichishni tasvirlay olganlar. Yuz mimikasi, imo-ishoralar qadimgi davrning kechki bosqichlarida ham uzoq vaqt davomida ibodatning yagona usuli bo'lgan, chunki imo-ishora ko'zga ko'rinadi, u kechinmalarni ifodalashning boshqa usuliga qaraganda qulay va moslashuvchanroq. Tezlik bilan murakkablashib brogan, o'zini-o'zi anglash va madaniyat shu bilan birga tangrini anglash yana boshqa ta'riflarni ifodalash uchun yangi shakllarni talab eta boshlaydi. Keyinchalik davrlar o'tishi, odamlarning jismoniy va aqliy mehnat jarayonini bir-biridan farqlashi bilan ibtidoiy odamlar tabiat hodisalari ya'ni (yomg'ir, suv, olov, quyosh chiqishi) jarayonlari hamda, ov mavsumi kelganida omadli ov bo'lishi uchun va farzand ato etishi uchun ham, qurg'oqchilik bo'lganida yomg'ir yog'ishi uchun ham o'zlarining iltijoli raqslarini ijro etganlar. Iltijoli raqslar hozirgi kungacha saqlanib qolgan davlat bu- Afrika qit'asi hisoblanadi. Olov oldida jamoa bo'lib raqs tushishlari insoniyat tarixining

ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi va buni o'sha davrdagi tosh bitiklaridagi rasmlardan bilib olish mumkin. Unga ko'ra ko'ra ov mavsumi yaqinlashishi bilan qabilalardan ovlashga ketgan qabilaboshilar va ibtidoiy odamlar ovlagan hayvonlarini boshi uzra yelkalariga ko'tarib olov atrofida o'ngga va chapga harakatlar orqali va turli shovqinli ovozlari bilan ovlagan hayvonlarining harakatlarini o'xshatishga uringanlar.

Ularning o'xshatishga uringan hayvon nomi kapalak, qush, panterra, ilon, bizon va hakazo. O'z mahoratlarini namoyon etib, ovlari bilan maqtanganlar va raqslari orqali o'z his-tuyg'ularinim ifoda etganlar. Shunday ekan farzand ato etganida ham, qurg'oqchilik paytida yomg'ir yog'ishi uchun ham, quyosh nur sochishi uchun ham iltijoli raqslar ijro etilgan bo'lsa, raqs insonning jon tomiriga kirib ketgan desam hato qilmagan bo'laman.

Faqatgina insonlar emas, balki borliqda mavjud bo'lgan barcha mavjudodlar va hayvonot olami (kabutar, oqqush, kapalak, asalarilar, qushlar) hamda butun borliq tomonidan raqs ijro etiladi. jonsiz jismlar ham raqsga tushishi mumkin-metaforik; hamda "barglarning shamolda raqs tushish" jarayonini ham misol qilish mumkin yoki gimnastika, sinxron suzish va jang san'atlarini ham raqsga qiyoslash mumkin. Keyinchalik davrlar o'tishi, odamlarning jismoniy va aqliy mehnatni birbiridan farqlashi bilan hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq hamda san'at yanada rivojlandi. Bu esa, san'atning ravnaqiga katta turtki berdi.

Endilikda san'at insonlarning ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallay boshladi. Bu davrda ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar muhim tantanalarga aylandi. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relief va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'landi. Odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgardi. Odamlar diniy tushunchalari ham o'zgardi. Odamlar tabiat tushunchalariga ya'ni kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga hudolarga sajda qila boshladilar. Bu hudolar timsolida aqliy barkamol, mo'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z karakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularning jasorati va oliyjanoblighi iroda va aql-zakovatining qudrati san'atkorlar tomonidan kuylandi. Odamlar qabilalarda yashaganligi sababli ularning hayotidagi eng muhim hususiyatlar, kasb-hunar usuli ularning marosim raqslarida mujassam bo'lgan. Ritual raqslarda 2 ta asosiy mavzu mavjud: Ov yoki urush hamda sevgi mavzusi hisoblanadi.

Ritual raqslarning barcha hususiyatlariga chuqurroq kirmasdan, biz ularning massivligini va dumaloq harakatlanish zarurligini ta'kidlaydi. Biroz vaqt o'tgach, raqslarning rivojlangan shakllarida raqslar ko'plab turlarga bo'linadi.

1. Raqs-o'yinlar (harbiy, ovchi karakterli) harbiy raqslarga misol: ukraincha "Xopak", gruzincha "Xorumi".
2. Diniy raqslar, bu yerda odam xudolardan hayot uchun qulay sharoitlarga erishishga harakat qildi. Afrika qabilalari yoki Rossiyaning shimolidagi xalqlarning "Shamanik" raqslari misol bo'ladi. Sevgi mavsumi har bir jonzot ya'ni oqqushlar harakati ko'proq misol bo'ladi. Hamda kabutarlar samodagi parvozi juda ham jozibali va sermazmundir. Shundan so'ng har bir san'at turi o'z yo'nalishini topdi va birbiridan ajraldi. Raqs san'ati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan xissiy taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Raqs musiqaga monand ritmik tana harakatlarida namoyon bo'ladi. Raqs turli madaniyatlarda namoyon bo'ladi, hissiyotlar, ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida yoki ko'ngilxushlik uchun ham ijro etib kelingan. Bu san'at turi dast avval qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, keyinchalik esa mustaqil san'at turi sifatida shakllangan. Raqslar asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'lib brogan. Ijrochilarning liboslari esa raqs obrazlariga aniqlik berib obrazlarni ochib bergan. Shunday ekan raqs inson va jamiyat madaniyati shakllanishining asosiy bo'lagi ekanligi, milliy ong va mafkuramizning yosh avlod qalbiga singdirishda san'atning ro'li naqadar muhim bir omil sifatida tan olishimiz mumkin. Bu so'zlarimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2021-2022 o'quv yilidan boshlab Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida Akademiya huzurida

iqtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin. 2. Quyidagilar belgilansin

a) Akademiyaning asosiy vazifalari etib:

- Raqs san'ati bo'yicha yuqori malakali bakalavr va magistrnlarni, shuningdek, ushbu sohada chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayorlash

b) Asosiy vazifalar

- Raqs san'atiga iqtidori bo'lgan yoshlarni joylarida saralab olish ularni kasbga yo'naltirish va xoreografiya ta'limi sohasida uzviyligni taminlash.

Va shu kabi ko'plab qarorlarni misol keltirishimiz mumkin. Bizga berilayotgan bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda el-yurtimizga munosib farzand bo'lib, xalqimiz manaviyati va yurtimiz taraqqiyoti uchun o'z xissamizni qo'shish oldimizga qo'yilgan burchimiz deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Muhamedova. Jahon va o'zbek xoreografiyasi san'ati tarixi". – T.; Fan
2. O'zME.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Qanatbayevna, Aximbetova Gulbahar, and Sarsenbaev Baxadir. "ORIENTAL SCHOLARS ON THE ART OF MUSIC." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 3 (2023): 11-14.
4. Qanatbayevna, Aximbetova Gulbahar, and Xudaybergenov Xursandjon. "PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ART OF GIVING." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 3 (2023): 7-10.
5. Qanatbaevna, Akhimbetova Gulbahar. "Perspectives of Development and Educational Significance of Bakhshi Art." *Miasto Przyszłości* 31 (2023): 67-71.
6. Gulbahar, Akhimbetova, and Munteeva Gulnara. "INTERNATIONAL COOPERATION IN THE ART OF BAKHSHI AND DASTAN IN NEW UZBEKISTAN: ACHIEVED RESULTS AND ANALYSIS." *Universum: филология и искусствоведение* 2 (92) (2022): 24-27.
7. Yuldasheva, Zuxra. "MILLIY VA ZAMONAVIY MUSIQA SANATINING TURFA VA RANG-BARANG USLUBI." *Miasto Przyszłości* 39 (2023): 256-259.
8. Юлдашева, Зухра. "ОСНОВНЫЕ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА." *Oriental Art and Culture* 4.3 (2023): 822-827.
9. Meñlimuratov, T. "BAQSILAR HA'M BAQSISHILIQ MEKTEPLERI." *Экономика и социум* 6-2 (109) (2023): 283-288.
10. Юлдашева, Зухра. "Развитие хореографии как самостоятельного вида искусства." *Science and Education* 3.12 (2022): 916-922.
11. Liza, Aximbetova. "AKTYORLAR ROL USTIDAGI ISH JARAYONI." *Miasto Przyszłości* 40 (2023): 356-359.
12. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
13. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
14. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).

15. Юлдашева, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
16. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
17. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLIISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
18. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
19. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
20. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
21. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.
22. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
23. Nazarbay o‘g‘li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
24. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
25. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
26. QOLQANATOV, Asilbek. "'O ‘ZBEKKONSERT’ DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL." *TA‘LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR* 12 (2023): 8-14.
27. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.
28. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San‘ati Va Yoshlar Tarbiyasi." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.2 (2023): 16-20.
29. QOLQANATOV, Asilbek. "MA‘DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
30. Nazarbay o‘g‘li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.